

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Umumiy fizika va qurilish muhandisligi" kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan Sho'rchi tumanidagi 42-umumta'lim maktabida olib borgan targ'ibot ishlari

BAYONNOMASI

2025 yil 10-aprel

Sho'rchi tumani

Qatnashdilar:

"Umumiy fizika va qurilish muhandisligi" kafedrası o'qituvchilari, Sho'rchi tuman 42-umumta'lim maktabi fizika fani o'qituvchilari va o'quvchilari.

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" chora tadbirlari to'g'risida

2. Maktabning laboratoriya xonasiga zarur bo'lgan jihozlar hamda o'quv ko'rgazmalar, test bankini yaratish, fizikaga oid metodik qo'llanmalarga bo'lgan talablarini o'rganish

3. O'quvchilar bilan suxbatlashish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 19.03.2021 yildagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarorining mazmun mohiyati, amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida maktab direktori G.Nuriddinova so'zga chiqib, kirish so'zi bilan ochib berdi. "Prezidentimiz tomonidan fizika fanlari rivojiga berilayotgan e'tibor, chiqarilayotgan qaror, farmonlarning nechog'lik samarali bo'layotganligi haqida to'xtalib o'tdi. Ushbu maktab fizika fanidan o'quv xonalari, laboratoriya jihozlari, o'quv ko'rgazmalari bilan ta'minlanganligi, shuningdek kutubxonadagi sharoitlar haqida ma'lumot berdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Umumiy fizika va qurilish muhandisligi" kafedrası professor-o'qituvchilariga so'z berildi. Ular institutdagi ta'lim yo'nalishlari, imtiyozlar, grant imkoniyatlari, kutubxona, laboratoriyalar, yotoqxona haqida batafsil ma'lumot berildi. Undan tashqari maktab o'qituvchilari va talabalari o'rtasida trening tashkil etilib, "Men kimman va kim bo'lmoqchiman?" mavzusida suhbat tashkil etildi. Bunda maktab o'quvchilari faol ishtirok etishdi. Bu treningni tashkillashtirishdan maqsad, o'quvchilarda o'zini anglash, shaxsiy salohiyatini aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kasb tanlashda zamonaviy yondashuvlarni tushuntirish, mehnat bozoridagi talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar

haqida xabardor qilish, DTPIIdagi ta'lim yo'nalishlari bilan tanishtirish orqali ularda qiziqish uyg'otish.

Bu trening so'ngida maktab o'qituvchisi Hamaullayeva Shahnoza so'zga chiqib trening davomida kuzatilgan o'quvchilar faolligi va ularning shaxsiy rivojlanishga bo'lgan qiziqishi haqida baho berdi. Institut tomonidan tashkillashtirilgan bunday tadbirlarning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini ta'kidladi. Maktab va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatish zarurligi, o'quvchilarni universitetga yo'naltirishda pedagoglar roli haqida fikr yuritadilar.

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" chora tadbirlari mazmun mohiyati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Institut o'qituvchilari tomonidan shaxsiy rivojlanish, kasb tanlash bo'yicha tashkil etilgan trening asosida hafta davomida davra suhbatlari, tadbirlar tashkil etilsin.

**Sho'rchi tuman 42-umumta'lim
maktabi direktori:**



G.Nuriddinova